



## O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA FRAZEOLOGIK IBORALARNING XUSUSIYATLARI

Elmuratova Umida Mamadiyarovna

Samarqand Davlat chet tillar instituti Sharq tillari va amaliyoti fakulteti  
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6337597>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:17-fevral 2022  
Ma'qullandi:22-fevral 2022  
Chop etildi:27-fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

So'z, leksikologiya,  
frazema, ibora,  
frazologik omonimiya,  
frazologik sinonimiy,  
frazologik antonimiya,  
shakl, ma'no, tarjima.

### ANNOTATSIYA

*Maqola koreys va o'zbek tillarida frazeologik iboralarning ko'p ma'noligi, ularning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari haqida nazariy ma'lumot berilib, misollar asosida tahlil qilingan. Shuningdek iboralarning uslubiy xususiyati haqida gapiradigan bo'lsak ularning badiiy va so'zlashuv uslubida ko'proq qo'llanishiga etibor qaratish tahlil etilgan.*

O'zbek va koreys tillari iboralarga juda boy til hisoblanadi. Frazeologik iboralarning ko'pligi nafaqat tilimizning boyligini, balki xalqlarning turmush tarzi, kundalik hayoti, nutq madaniyatidagi o'ziga xos hususiyatlarini ham ko'rsatib turadi. 한국 사람들도 관용표현을 많이 사용합니다. 관용표현은 단어들의 의미만으로는 전체의 의미를 알 수 없는 특수한 의미를 나타냅니다. 다양한 관용표현과 함께 그 뜻을 알고 있으면 어떤 문제가 나오더라도 문제를 쉽게 풀수 있습니다.

**Frazeologik ibora** — O'zbek va koreys tillarida lug'at tarkibini tashkil etuvchi

birliklardan biridir. Ular ikki va undan ortiq so'zning ko'chgan ma'nolari asosida tarkib topgan lug'aviy birlik bo'lib xuddi so'z kabi lug'aviy ma'noni anglatadi. Masalan, **xamirdan qil sug'urganday** iborasi, "osonlik bilan", "qiyinchiliksiz" ma'nosini, **ko'ngil bermoq** iborasi "sevmok" ma'nosini, **qo'y og'zidan cho'p olmagan** iborasi "yuvosh" ma'nosini bildiradi.<sup>1</sup>Xuddi so'z kabi yaxlit bir ma'noni anglatadigan bunday til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi.

**Frazeologik ibora** — frazema frazeologik birlik sifatida tilshunoslikning frazeologiya bo'limida o'rganiladi. Iboralar

<sup>1</sup> M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yoldoshev, D. Muhamedova. O'zbek tili praktikumi. Toshkent. "Iqtisod-Moliya", 2006 yil. 76-bet.



tuzilishiga ko'ra ya'ni birdan ortiq so'zdan tashkil topishi bilan so'z birikmasi yoki gapga o'xshab ketsa ham, nutq birligi sanalgan bunday birliklardan tamoman farq qiladi va lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi. So'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar iboralarga ham xosdir.

Frazeologik iboralar so'z birikmasi yoki gaplar kabi har gal nutqning o'zidagina yuzaga kelmaydi, balki ular, xuddi so'zlar kabi tilda tayyor holda bo'ladi. Shuning uchun iboralarni turg'un birikmalar hisoblaymiz. Chunki ibora tarkibidagi so'zlarni ajratib bo'lmaydi. Iboralar gapda bitta so'roqqa javob bo'lib, bitta bo'lak vazifasida keladi. Demak, iboralar nutq hodisasi emas, balki til hodisasi hisoblanadi: **aravani quruq olib qochmoq, kavushini to'g'rilab qo'yimoq, tomdan tarasha tushganday, kapalagi uchib ketdi**, kabilar tilda tayyor holdagi birliklardir.

Frazeologik iboralar ham xuddi so'zlar kabi, shakl va ma'no butunligiga ega. So'zning shakliy tomonini tovushlar (harflar) hosil etsa, iboralarning shakliy tomonini so'zlar hosil etadi: **yoqlamoq - yon bosmoq, rahmdil - ko'ngli bo'sh** kabi.

Frazeologik iboralar 2 xil shaklda bo'ladi.

1. *So'z birikmasi shaklida*: **ichi qora, ko'ngli to'q, oq ko'ngil** kabi.

2. *Gap shaklida*: **Tirnoq ostidan kir qidiradi, kapalagi uchib ketdi, ilonning yog'ini yalagan**.

Lekin so'z birikmasi bilan so'z birikmasi shaklidagi iboralarning o'zaro farqi bo'lib, so'z birikmasining tarkibidagi so'zlar o'z leksik ma'no mustaqilligini saqlagan bo'ladi. Frazeologik iboraning tarkibidagi so'zlar esa o'z leksik ma'nosi bilan qatnashmaydi, ma'nosini yo'qotgan bo'ladi. Ba'zan ibora so'z birikmasi bilan shaklan teng kelib qolishi mumkin. Bunday holatda ibora turg'un birikma sifatida erkin birikma bilan omonimik holatda bo'ladi. Buni biz quyidagi misollarni

keltirishimiz orqali qiyoslashimiz mumkin. Masalan:

1. *Nima uchun bu haqiqatdan ko'z yumasiz?* (Sharof Rashidov)

2. *Ahmadjon atrofda birdan chang, to'zon bo'lganligi sababli ko'zini yumdi*.

Birinchi gapda "ko'z yummoq" ibora bo'lib, "voz kechmoq ma'nosida", ikkinchi gapda o'z ma'nosida kelgan. Nafaqat o'zbek tili koreys tilida xam "ko'z" (눈) idiomatik iboralar uchun eng ko'p ishlatiladigan so'zdir. Tana so'zlari orasida "ko'z" (눈) iboralarni yaratish uchun eng yaxshi material sifatida tanlangan.

예: 눈 딱 감다. (ko'zini mahkam yumdi- ya'ni boshqa narsalarni uylamaslik ma'nosida)

눈 뜨고 도둑 맞는다. (ko'zini yumib o'g'rini tutadi)

눈 뜨고 볼 수 없다. (ko'z yumsang ko'rolmaysan)

눈 먼 개 짖 탐한다. (Ko'zi ojiz itning sutiga havas qiladi)

눈 먼 고양이 / 증 갈발 메뚜 / 든뚝 (Ko'zi ojiz mushuk / xuddi qamish ko'targanday-ya'ni maqsadsiz u yoq-bu yoqqa yurish).

눈 먼 놈이 앞장 선다-못난 놈이 남보다 먼저 나선다 (Ko'r odam etakchilik qiladi- xunuk yigit boshqalardan oldinda yuradi)

눈 먼 망아지 / 말 워낭 소리 듣고 따라 간다. (Ko'zi ko'r / Ot ovozni tinglab, ergashadi).

Ba'zi iboralar tuzilishi jihatdan gap shaklida ham bo'ladi. Lekin ular nutqda gapning bir bo'lagi vazifasida keladi va hammasi bitta so'roqqa javob bo'lib, gap



tarkibidagi soʻzlar kabi alohida-alohida soʻroqqa javob boʻlmaydi.

Koreys tilidagi frazalar Ozbek tilidagi iboralarga oʻxshab ketadi. Ammo iboralarda maʼlum millatga xos xususiyatlar boʻladiki, ularni tarjima qilayotganda ularning bu jihatlariga eʼtibor qilinadi. Agar iboralarni soʻzma-soʻz tarjima qilinsa boshqa maʼno kelib chiqadi.

발이 넓다: 알고 지내는 사람이 많다.

Oyogʻi keng: Tanish-bilishi koʻp.

발을 끊다: 서로 오가지 않거나 관계를 끊다.

Oyogʻini uzmoq (tiymoq): Oʻzaro bordi-keldi qilmay, aloqani uzmoq.

발 벗고 나서다: 어떤 일을 적극적으로 하다.

Oyogʻi tinmaydi: Xar bir ishni sitqidildan bajaradi.

Bundan koʻrinib turibdiki iboralar lugʻaviy birlik boʻlgani uchun xuddi soʻzlar kabi gapda biror boʻlak vazifasida keladi.

1. Aravani quruq olib qoschish yaxshi ish emas.
2. Qosh qoʻyaman deb koʻz chiqaradigan bunday hodisalar... hali ham onda-sonda roʻy berib turadi.
3. Azizaning bu xabardan boshi osmonga yetdi.
4. Odamlar qoʻltigʻidan tarvuzlari tushib qishloqqa qaytishdi.

Yuqorida keltirilgan gaplarda frazeologik iboralar birinchi gapda ega, ikkinchi gapda aniqlovchi, uchinchi gapda kesim, toʻrtinchi gapda esa hol vazifasida kelgan.

Xuddi soʻzlarda boʻlgani kabi frazeologik iboralarda ham omonimiya, sinonimiya va antonimiya hodisalari bor.

Bir xil soʻzlardan tuzilgan, tamoman boshqa-boshqa maʼno bildirgan frazeologik iboralar **omonim iboralar (frazeologik omonimiya)** hisoblanadi.

**Boshiga koʻtarmoq** iborasi. 1 – shovqin qilmoq; 2 – hurmat qilmoq maʼnolari bilan omonim iboralar hisoblanadi. Bu yerda omonimiya odatda ikki ibora orasida voqe boʻladi. Frazeologik iboralar tarkibidagi soʻzlar har xil leksik maʼnosi bilan qatnashadi.

Masalan: **dam bermoq-1 va dam bermoq-2** iboralari tarkibida feʼl ayni bir leksik maʼnoni, ot soʻz turkumi esa boshqa-boshqa leksik maʼno bilan qatnashgan.(dam 1 – havo, yel; dam 2 – istirohat, hordiq.) ters sifatining antonimi.

Shakli har xil iboralarning maʼno jihatdan yaqin boʻlishi **sinonim iboralar (frazeologik sinonimlar)** deyiladi. Masalan, **yaxshi koʻrmoq – koʻngil bermoq; dimogʻi shishdi – burni koʻtarildi;**

Frazeologik sinonimlar bir-birlaridan maʼno qirralariga koʻra farq qiladi. Masalan: **yer bilan yakson boʻlmoq – yer bilan yakson qilmoq** iborasi **kulini koʻkka sovurmoq – kuli koʻkka sovurildi** iborasi bilan sinonim, ayni bir maʼnoni anglatadi (butunlay yemirmoq, yoʻq qilmoq). Bu sinonimlar boshqa belgi-xususiyatlaridan qatʼiy nazar maʼno qirrasida farq qiladi. Ikkinchisida maʼno bir qadar kuchli.

Qarama-qarshi maʼno ifodalovchi iboralar **antonim iboralar (frazeologik antonim)** hisoblanadi. Masalan, *oq koʻngil – ichi qora; koʻngli joyiga tushdi – yuragiga gʻulgʻula tushdi;*

Antonimiya til birliklari orasida semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri boʻlib, iboralarda ham soʻzlardagi darajada uchraydi. Antonimiya hodisasini belgilash, birinchidan, iboralarning lugʻaviy maʼnosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan, koʻp maʼnolik hodisasida bir iboraning maʼnolarini oʻzaro farqlashga yordamlashadi, uchinchidan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.



Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki frazeologik iboralar yuzasidan nazariy ma'lumotni o'rganish shuni ko'rsatadiki, hamma iboralarni ham darsliklarga yoki o'quvchilarga havola qilish mumkin emas. Ulardan qaysilarini o'quvchilarga yetkazdirish, qaysilarini umumiy, nazariy ma'lumot sifatida saqlab qolish masalalari ishlab chiqilgan.

So'zimiz yakunida frazeologik iboralarning ko'p ma'noligi, ularning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari haqida nazariy ma'lumot berilib, misollar asosida tahlil qilindi. Shuningdek iboralarning uslubiy xususiyati haqida gapiradigan bo'lsak ularning badiiy va so'zlashuv uslubida ko'proq qo'llanishiga amin bo'ldik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Qomuslar Bosh tahririyati, Toshkent, 1992-yil.
2. Sh. Almatova O'zbek tili frazemalarining komponent tahlili Toshkent, 2008-yil.
3. Kim Min Uk, Ismailov Anvar, Kim Chun Sig va b; "Koreys tili grammatikasi" Toshkent, 2007-yil.
4. 김정숙, 박동호, 이병규, "한국어 문법". 서울 2005년.
5. 김문옥, "한국어- 러시아어 사전". 서울 2009년.
6. Ким В. Н. Ким Фил Ким Е. В. Теоретическая грамматика корейского языка. Таш ГИВ. 2013.
7. Им Хо Бин Хон Гён Пчё Чонг Сук Ин. ва бош. Грамматика корейского языка Для иностранцев Сеул. 2009.
8. Нам Гим Сим. Ко Еббо Гын. Теория грамматика литературного родного (корейского) языка.
9. Ю. П. Когай. Фразеологизмы корейского языка. 한국 관용어. 2014 년.
10. В.Н. Лим. Стилистика и культура и речи корейского языка Хабаровский. 2018 год.